

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI



**AVTOMOBILLARDA TASHISHDA
XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH**

fanining

O'QUV DASTURI

(2-kurslar uchun)

Bilim sohasi:	1000 000 – Xizmatlar
Ta'lim sohasi:	1040 000 – Transport xizmatlari
Ta'lim yo'nalishi:	61040300 – Yo'l harakatini tashkil etish

Urganch – 2024y

Mazkur o'quv dastur Urganch davlat universiteti Kengashining 2024-yil "06" 06 -sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor:

S.U. Xodjaniyazov

Akademik faoliyat va registrator

departamenti boshlig'i:

G'. R. Matlatipov

Mazkur o'quv dastur "Texnika" fakulteti Kengashining 2024-yil "21" 06 -sonli yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan. (P -sonli bayonnom).

Texnika fakulteti
dekani:

M.Q. Qurbanov

Mazkur o'quv dastur "Transport tizimlari" kafedrasining 2024-yil "19" 06 -sonli yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan (2) -sonli bayonnom).

Transport tizimlari
kafedrasi mudiri:

S.M.Madaminov

Fan/modul kodi : ATXT1116		O'quv yili 2024-2025	Semestr 3	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Fanning nomi	Ta'lim tili O'zbek	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	AVTOMOBILLARDA TASHISHDA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH		75	105	180
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitilidan maqsad - Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartiga ko'ra "Transport xizmatlari" ta'lim sohasida o'qitiladigan "Avtomobillarda tashishda xavfsizlikni ta'minlash" fan dasturida mutaxassislik uchun zarur bo'ladigan mavzular qamrab olingan. Bakalavr yo'nalishlarining fan dasturlari hozirgi davr talablaridan kelib chiqqan holda ko'rib chiqildi. Dasturning asosiy qismidagi mavzular soha korxonalaridagi mavjud muammolar asosida shakllantirilgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo davlatlari ichida ishlab chiqarish va industrial qurilishi hamda qishloq xo'jaligi maqsulotlarini yetishtirishi bo'yicha oldingi o'rinda turadi va ularning barchasi birgalikda har xil transportlar xizmatidan foydalanadilar. Respublika yo'l-transport kompleksi faoliyati samaradorligini oshirish, axolining transport xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini maksimal ta'minlash mamlakatimiz transport tizimining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Transport tizimining hozirgi kundagi holati zamonaviy texnologiyalarni uning barcha sohalariga izchil tatbiq etish bilan tavsiflanadi. Shu boisdan ham bu soha bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash sifatiga katta e'tibor berish talab etadi. Fanning vazifasi quyidagilardan iborat: talabalarga yo'l harakatini tashkil etish sohasidagi me'yoriy hujjatlar, harakat xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari, yo'l harakatini boshqarish jarayonida qo'llaniladigan me'yoriy talablarni o'rgatishdan iborat. Fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi. Dasturni amalga oshirish bakalavrning o'quv jarayonida o'zlashtirgan ma'lumotlarga, o'quv rejasiga kiritilgan oliy matematika, fizika, kimyo, nazariy mexanika, chizma geometriya va muhandislik grafikasi, materiallar qarshiligi, materialshunoslik, mashinasozlik texnologiyasi, o'zaro almashtiruvchanlik, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, gidravika asoslari va issiqlik texnikasi, avtomobil konstruksiyasi, avtomobil nazariyasi kabi fanlarni bilishiga asoslanadi. Yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari dasturni interaktiv usullarda o'zlashtirishni taqazo etadi. Bunda asosiy e'tibor auditoriya mashg'ulotlarida va				

mustaqil tayyorgarlikda o'zlashtiriladigan chuqurlashtirilgan nazariy bilimlarga hamda ob'ektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyoqarashni shakllantirishga qaratiladi. Fanni o'zlashtirishda ma'ruza mashg'ulotlariga katta o'rin ajratiladi.

Dasturiy materiallarni o'zlashtirish to'rt xil:

- muammoli mavzular bo'yicha;
- mustaqil o'zlashtirish bo'yicha;
- ta'lim oluvchilarda alohida qiziqish uyg'otuvchi bo'limlar bo'yicha;
- munozaralar jarayonida o'zlashtiriladigan bilimlar bo'yicha seminar va kollokviumlarni o'tkazish yo'li bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba texnik adabiyotlar, internet materiallari va me'yoriy hujjatlar bilan ishlay bilishini namoyon qilishi, auditoriya mashg'ulotlari paytida o'zlashtirgan axborotni to'g'ri mulohaza qilish qobiliyatini ko'rsatishi zarurdir.

Fanni ishlab chiqarishdagi o'rni - Talabalarga yo'l harakatini tashkil etish haqida tushuncha va bilimlar berish, haakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha esa chuqur bilim olishlarini ta'minlash, ularning turli ekspluatatsion va iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholash, tayyorlanish sifati va texnik darajasi, raqobatbardoshligi kabi ko'rsatkichlarini aniqlash va tahlil qilish bo'yicha malakalar berishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

- 1-Mavzu. Kirish. Fanning maqsad va vazifalari. Fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
- 2-Mavzu. Avtomobil transport vositalari
- 3-Mavzu. Avtomobil transport vositalari ish sharoitlari.
- 4-Mavzu. Avtomobil transportida yuk tashish asoslari.
- 5-Mavzu. Avtomobil transport vositalarining ekspluatatsion xususiyatlari.
- 6-Mavzu. Tashishni tashkil etishning asosiy elementlari.
- 7-Mavzu. Avtomobil transporti asosiy ish ko'rsatkichlari.
- 8-Mavzu. Transport vositalari ish unimdorligi.
- 9-Mavzu. Yuk avtomobili transporti vositalarini tanlash va ularni xisoblash.
- 10-Mavzu. Marshrutda ishlovchi transport vositalari ish hisobi.
- 11-Mavzu. Yuk tashishni tashkil etish tizimlari.
- 12-Mavzu. Yuk avtomobili harakatini tashkil etish.
- 13-Mavzu. Yuk tashishda ortish-tushirish ishlarini tashkil etish va mexanizatsiyalash.
- 14-Mavzu. Yo'lovchilar tashish asosiy elementlari.
- 15-Mavzu. Transport vositalarini tanlash.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada xar bir akademik, guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, "Keys-stadi" texnologiyasi ishlatiladi, keyslar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

1. Transport vositalari ekspluatatsion xususiyatlari
2. Yuk tashish marshrutlarini tuzish
3. Transport vositasi ish unimiga texnik-ekspluatatsion ko'rsatkichlar ta'siri
4. Transport vositalarini tanlash.
5. Transport vositalarining marshrutlardagi ishi ko'rsatkichlarini hisoblash
6. Avtokorxona ishlab chiqarish dasturini hisoblash
7. Transport vositasi harakat grafigini tuzish
8. Shaharlararo yuk tashishni tashkil etish
9. Yo'lovchilar oqimini kuzatish va uni tahlil etish
10. Marshrutda ishlovchi avtobuslar sonini va harakat intervalini aniqlash

11. Yuk tashishda marshrutlar tuzish va tashish ishlarini muvofiqlashtirish
12. Xavfsiz harakatlanishni ta'minlashda transport vositalarini texnik xolatining ahamiyati.
13. Avtomobillarni yonilg'ining solishtirma sarfi bo'yicha tanlash.

Amaliy mashg'ulotlar tashkillashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va bir akademik guruhga bitta professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur.

IV. Mustaqil ta'lim mazmuni

O'qish jarayonida o'qituv dasturida keltirilgan barcha mavzular o'qituvchi tomonidan to'liq yoritilmaydi, ayrim mavzular to'g'risida o'qituvchi faqat qisqartirilgan xulosaviy ma'lumotlar beradi va o'qituvchi talabalarga bu mavzularni to'liq o'rganish uchun zarur bo'lgan adabiyotlarni tavsiya etadi. Bundan tashqari ayrim mavzular talabalarga ilmiy yondoshishni taqozo etadi. Bu ko'rinishdagi ishlar talabalarga o'qituvchi nazorati ostida bajariladigan mustaqil ish sifatida tavsiya etiladi.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Avtomobillar o'lchami va massasi ko'rsatkichlarining mumkin bo'lgan chegaralari
2. Transport vositalari tasnifi
3. Avtomobillarning asosiy texnik-ekspluatatsion xususiyatlari
4. Avtomobilning dinamikligi
5. Maxsus avtomobillar.
6. Tashishni tashkil etishga doir avtomobillarning texnik ekspluatatsion xususiyatlari.
7. Avtomobillarning chegaraviy o'lchamlarining harakat xavfsizligiga ta'sirini izohlang.
8. Avtomobil yo'llarini tasniflashini o'rganishdan maqsad
9. SHahar aloqa yo'llari tasnifini keltiring.
10. Yuk va ular tasnifi.
11. Tara va uning xizmati.

12. Yuk hosil etuvchi va qabul qiluvchi punktlar.
13. Ortish-tushirish ishlarini mexanizatsiyalash vositalarini tanlash. Ortish-tushirish mashinalarining unumi.
14. Uyib tashiluvchi yuklarni ortish-tushirish ishlarini tashkil etish va mexanizatsiyalash.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3	Fan bo'yicha talabalar bilimini baholash va nazorat qilish mezonlari. NAZORAT TURLARI 1.1. Ushbu semestrda fandan talabalar bilimini nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi. 1.2. Oraliq nazorat o'quv semestrmning 12-haftasida talabaning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida o'quv mashg'ulotlari davomida 1 marta o'tkaziladi. 1.3. Talabaning amaliy mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek uning ushbu mashg'ulotlardagi faolligi fan o'qituvchisi tomonidan baholab boriladi. 1.4. Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda test yoki 3 ta nazariy savolga yozma ish javobida olgan baholari o'rtachasi xisoblanib yaxlitlab qo'yiladi. 1.5. Yakuniy nazorat turi semestr yakunida ushbu fan bo'yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida test yoki 3 ta savol berish orqali yozma shaklda o'tkaziladi: Test : 30 ta Yozma: 1-savol nazariy 2-savol nazariy 3-savol nazariy (yoki amaliy) Yakuniy nazorat turini o'tkazish ushbu shakli kafedra tomonidan belgilangan.
4.	TALABALAR BILIMINI BAHOLASH MEZONLARI Talabalar bilimni quyidagi mezonlar asosida: talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho; talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

	talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho; talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.
5.	TALABALAR BILIMINI BAHOLASHDA UMUMIY QOIDALAR 1. Talabalar bilimini baholash 5 baholik tizimda amalga oshiriladi. 2. Yakuniy nazorat Texnika fakulteti dekani tomonidan ishlab chiqilgan (o'quv ishlari bo'yicha prorektor tasdiqlagan) yakuniy nazorat turlarini o'tkazish jadvaliga muvofiq o'tkaziladi. 3. Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi yakuniy nazorat turini o'tkazishda ishtirok etishi taqiqlanadi. 4. Agar ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi tomonidan nazorat turlarini o'tkazilish tartibi buzilganligi aniqlangan hollarda, o'tkazilgan nazorat turlarining natijalari bekor qilinishi hamda tegishli nazorat turi qaytadan o'tkazilishi mumkin. 5. Talaba tegishli fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo'lishlari shart. 6. Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha «2» (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi. Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha «2» (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qarzdor hisoblanadi. 7. Talaba uzrli sabablarga ko'ra oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu talabaga tegishli nazorat turini qayta topshirishga fakultet dekanining farmoyishi asosida ruxsat beriladi. 8. Talaba oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini birinchi marta qayta topshirishdan o'ta olmagan taqdirda, fakultet dekani tomonidan komissiya tuziladi. Komissiya tarkibi tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchi va soha mutaxassislari orasidan shakllantiriladi. Ikkinchi marta oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini o'tkazish va talabani baholash mazkur komissiya tomonidan amalga oshiriladi. 9. Berilgan muddat davomida mavjud bo'lgan qarzdorlikni topshira olmagan

talaba bo'yicha fakultet dekani bildirgi bilan oliy ta'lim muassasasi rektorini (boshlig'ini, filial direktorini) xabardor qiladi va ushbu talaba rektor (boshliq, filial direktori) buyrug'i asosida kursdan qoldiriladi.

10. Talaba baholash natijasidan norozi bo'lgan taqdirda, baholash natijasi e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat davomida apellyasiya berishi mumkin. Talaba tomonidan berilgan apellyasiya fakultet dekani tomonidan tashkil etiladigan Apellyasiya komissiyasi tomonidan 2 kun ichida ko'rib chiqiladi. Talabani apellyasiyasini ko'rib chiqishda talaba ishtirok etish huquqiga ega. Apellyasiya komissiyasi talabani apellyasiyasini ko'rib chiqib, uning natijasi bo'yicha ushbu semestrda fanni o'zlashtirgani yoki o'zlashtira olmaganini ko'rsatilib qaror qabul qiladi, qarorni fakultet dekani va talaba etkazilishini ta'minlaydi.

11. Nazorat turi bo'yicha talabani bilmoli «3» (qoniqarli) yoki «4» (yaxshi) yo'xud «5» (a'lo) baho bilan baholanganda, nazorat turini qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Asosiy adabiyotlar

1. Butaev Sh.A., Sidiqazarov Q., Murodov A., Qo'ziev A.O'. Logistika (etkazib berish zanjirida oqimlarni boshqarish).- T.:Extremum-Press, 2012.-577 b.
2. Arifjanova N. Z., Yoqubov M. Avtomobillarda yuk va passajirlar tashish asoslari.- T.: Fan, 2007.-168 b.
3. Azizov K.X. Harakat xafsizligini tashkil etish asoslari.- T.:Fan va texnologiyalar, 2009.- 244 b.
- 4.E.Z.Fayzullayev. Transport vositalarining tuzilishi va nazariyasi. Darslik Toshkent-2006.- 377bet.
- 5.Sidiqazarov Q.M. Avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi. Darslik Toshkent-2018.- 350 bet.
- 6.Muxitdinov A. Ixtisoslashtirilgan transport vositalari. Darslik Toshkent-2020 yil. 220 bet.
- 7.X.Mamatov Avtomobillar. Toshkent 1998 yil 274 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

- 1.G.A.Samatov, Yo.K.Karrieva, B.B.Payziev. Raqobat muhitida xalqaro transport tizimi faoliyatining logistik ishonchligi. T.: TDAU nashr tahririyati, 2003, 81 b.
- 2.Bauersoks Donald Dj., Klass Deyvid Dj. Logistika: integriruvannaya sep postavok. - M.: Olimp-Biznes, 2001, 640 s.

Axborot manbalari

	1. http://www.ziyo.net 2. http://www.madi.ru 3. http://www.traktor.ru 4. http://www.engine.ru 5. http://www.dvs-frover.ru 6. http://www.dvigan.narod.ru
7	Fanning o'quv dasturi <u>29.06</u> <u>11</u> - sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan. Urganch davlat universiteti Kengashning 2024 yil
8	Fan/modul uchun mas'ullar: Yuldasheva M.A. – UrDU “Transport tizimlari” kafedrasini o'qituvchisi. Taqrizchilar: B. Sabirov - UrDU “Transport tizimlari” kafedrasini dostoni, t.f.n. I.S. Ruziyev – UrDU “Transport tizimlari” kafedrasini mudiri, t.f.n., dotsent